

## **AYOLLAR TADBIRKORLIGIDA MOLİYAVIY INKLUZIVLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI**

**A.T.Raxmonova**

*Samarqand davlat veterinariya, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universiteti asestenti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ayollar tadbirkorligida moliyaviy inkluzivlikni oshirish masalalari tahlil qilinadi. Xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan ayol tadbirkorlarning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari, mavjud institutsional to'siqlar hamda ularni bartaraf etish mexanizmlari o'rganildi. Tadqiqot natijasida moliyaviy inkluzivlikni baholash uchun integral indeks taklif etildi va kreditga kirish imkoniyatiga ta'sir etuvchi omillar iqtisodiy tahlil asosida asoslab berildi.

**Kalit so'zlar:** ayollar tadbirkorligi, moliyaviy inkluzivlik, xizmatlar sohasi, kreditlash, raqamlashtirish.

So'nggi yillarda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish gender tenglikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning muhim omili hisoblanadi. Xizmatlar sohasi ayollar bandligining asosiy segmentlaridan biri bo'lib, mazkur yo'nalishda ko'plab biznes subyektlari kichik hajmda va cheklangan moliyaviy resurslar sharoitida faoliyat yuritmoqda. Moliyaviy inkluzivlik deganda aholining va tadbirkorlik subyektlarining bank, kredit, sug'urta hamda raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi tushuniladi. Ayol tadbirkorlar uchun garov ta'minotining yetishmasligi, moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi va rasmiy daromad hujjatlarining cheklanganligi moliyaviy xizmatlardan foydalanishda asosiy to'siqlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, statistik guruhlash, qiyosiy taqqoslash va iqtisodiy modellashtirish usullaridan foydalanildi. Xizmatlar sohasida faoliyat yurituvchi ayol tadbirkorlar o'rtasida so'rovnoma o'tkazilib, olingan natijalar umumlashtirildi. Moliyaviy inkluzivlikni baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlar asosida integral indeks taklif etildi: bank hisob raqamiga egalik, kreditdan foydalanish, sug'urta xizmatlaridan foydalanish hamda raqamli to'lov tizimlaridan foydalanish darajasi. Shuningdek, kreditga kirish imkoniyatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida regressiya modeli qo'llanildi. Modelda moliyaviy savodxonlik, daromad darajasi, garov mavjudligi va raqamli ko'nikmalar mustaqil omillar sifatida tanlandi. Tadqiqot obyekti sifatida xizmatlar sohasida faoliyat yurituvchi ayol tadbirkorlar tanlandi. Tadqiqot predmeti esa ularning moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi va ushbu jarayonga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar hisoblanadi.

Empirik tahlil uchun birlamchi ma'lumotlar asos qilib olindi. Xizmatlar sohasining savdo, maishiy xizmat, ta'lim, tikuvchilik va go'zallik industriyasi yo'nalishlarida faoliyat yurituvchi ayol tadbirkorlar o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. Tanlanma shakllantirishda tasodifiy tanlash (random sampling) va kvotalash elementlaridan foydalanildi. So'rovnoma natijalari anonim tarzda yig'ildi va statistik jihatdan qayta ishlash uchun kodlashtirildi.

Tadqiqot doirasida moliyaviy inkluzivlikni miqdoriy baholash uchun integral indeks ishlab chiqildi. Indeks to'rtta asosiy ko'rsatkich asosida shakllantirildi:

1. Bank hisob raqamiga egalik darajasi
2. Kreditdan foydalanish holati
3. Sug'urta xizmatlaridan foydalanish darajasi
4. Raqamli to'lov tizimlaridan foydalanish ko'lami

Har bir ko'rsatkich 0 dan 1 gacha intervalda normallashtirildi. Integral indeks quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$MII = (B + K + S + R) / 4$$

Bu yerda:

- MII – moliyaviy inkluzivlik indeksi;
- B – bank xizmatlaridan foydalanish;
- K – kreditdan foydalanish;
- S – sug'urta xizmatlari;
- R – raqamli to'lov tizimlari.

Indeks qiymati 0 ga yaqinlashgan sari moliyaviy cheklanganlik, 1 ga yaqinlashgan sari esa yuqori moliyaviy inkluzivlikni anglatadi. Moliyaviy inkluzivlikning muhim komponenti sifatida kreditga kirish imkoniyatiga ta'sir etuvchi omillar regressiya modeli yordamida baholandi. Model quyidagi ko'rinishda ifodalandi:

$$\text{Kreditga kirish} = \beta_0 + \beta_1 MS + \beta_2 DD + \beta_3 GM + \beta_4 RK + \varepsilon$$

Bu yerda:

- MS – moliyaviy savodxonlik darajasi;
- DD – daromad darajasi;
- GM – garov mavjudligi;
- RK – raqamli ko'nikmalar darajasi;
- $\varepsilon$  – tasodifiy xatolik hadidir.

Model parametrlarini baholashda eng kichik kvadratlar usulidan foydalanildi. Olingan natijalarning ishonchligi determinatsiya koeffitsienti ( $R^2$ ) va statistik ahamiyatlilik mezonlari asosida tekshirildi. Tadqiqot natijalari asosan birlamchi so'rov ma'lumotlariga tayanadi. Shu bois, ayrim javoblar subyektiv baholash elementlarini o'z ichiga olishi mumkin. Kelgusida rasmiy statistik ma'lumotlar bilan integratsiyalashgan kengroq panel tadqiqot o'tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'tkazilgan empirik tadqiqot natijalari ayollar tadbirkorligida moliyaviy inkluzivlik darajasi bir xil emasligini ko'rsatdi. Moliyaviy xizmatlardan foydalanish tarkibi bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjud. So'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning katta qismi bank hisob raqamiga ega ekanligi aniqlandi. Bu ko'rsatkich ayol tadbirkorlarning rasmiy moliyaviy tizim bilan ma'lum darajada integratsiyalashganini anglatadi. Biroq, bank hisob raqamining mavjudligi moliyaviy resurslardan faol foydalanishni to'liq ta'minlamayotganligi kuzatildi. Ko'plab tadbirkorlar hisob raqamidan asosan hisob-kitob operatsiyalari uchun foydalanadi, investitsion yoki kredit resurslarini jalb qilish esa cheklangan darajada qolmoqda.

Kreditlash masalasida natijalar nisbatan past ko'rsatkichni namoyon etdi. Respondentlarning yarmidan kamrog'i bank yoki mikromoliya tashkilotlari orqali kredit olganini bildirgan. Kredit olishdan bosh tortgan tadbirkorlar orasida asosiy sabablar sifatida quyidagilar qayd etildi:

- Garov ta'minotining yetishmasligi;
- Foiz stavkalarining yuqoriligi;
- Kredit olish tartibining murakkabligi;
- Qarzdorlikdan qo'rquv va moliyaviy xavf-xatarlarni yuqori baholash.

Shuningdek, ayrim respondentlar norasmiy qarz mexanizmlaridan (qarindosh-urug', tanishlar) foydalanishni afzal ko'rishini bildirgan. Bu esa rasmiy moliyaviy sektor imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotganini ko'rsatadi. Sg'urta xizmatlaridan foydalanish darajasi eng past segmentlardan biri sifatida qayd etildi. Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, ko'pchilik ayol tadbirkorlar biznes risklarini sug'urtalash mexanizmlaridan xabardor emas yoki ularni ortiqcha xarajat sifatida qabul qiladi. Bu esa biznes barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Raqamli to'lov tizimlaridan foydalanish bo'yicha ijobiy tendensiya kuzatildi. Respondentlarning katta qismi mobil banking, onlayn to'lov va elektron pul o'tkazmalari xizmatlaridan muntazam foydalanishini bildirgan. Ayniqsa, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar orasida raqamli to'lovlar keng tarqalgan. Raqamlashtirish moliyaviy operatsiyalarning shaffofligini oshirish, xarajatlarni qisqartirish va mijozlar bazasini kengaytirish imkonini berayotgani aniqlandi. Bu holat moliyaviy inkluzivlikni oshirishda raqamli infratuzilmaning muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi.

Moliyaviy inkluzivlikning integral indeksi hisoblanganda o'rtacha daraja qayd etildi. Indeks tarkibida bank xizmatlari va raqamli to'lovlar yuqori ulushni egallagan bo'lsa, kredit va sug'urta komponentlari past ko'rsatkichni tashkil etdi. Bu moliyaviy tizim bilan formal bog'liqlik mavjud bo'lsa-da, moliyaviy resurslardan faol foydalanish yetarli darajada emasligini anglatadi.

Regressiya modeli natijalari moliyaviy savodxonlik va raqamli ko'nikmalar kreditga kirish imkoniyatiga eng kuchli ta'sir ko'rsatayotgan omillar ekanligini tasdiqladi.

- Moliyaviy savodxonlik darajasi oshgan sari kreditdan foydalanish ehtimoli ortishi kuzatildi. Bu tadbirkorlarning kredit shartlarini tushunishi va moliyaviy rejalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishi bilan izohlanadi.

- Raqamli ko'nikmalar ham muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Onlayn ariza topshirish, mobil banking xizmatlaridan foydalanish imkoniyati kredit jarayonini soddalashtiradi.

- Garov ta'minoti mavjudligi kredit olishda ahamiyatli omil bo'lib qolmoqda, biroq u yagona hal qiluvchi omil emasligi aniqlandi.

- Daromad darajasi esa nisbatan pastroq ta'sir ko'rsatdi, bu esa kreditga kirishda bilim va institutsional imkoniyatlar moddiy ko'rsatkichlardan ustun turishini ko'rsatadi.

Natijalar asosida ayollar tadbirkorligida moliyaviy inkluzivlikni oshirishning kompleks mexanizmi taklif etiladi. Birinchidan, davlat tomonidan kafillik asosida kreditlash va foiz stavkalarini subsidiyalash mexanizmlarini kengaytirish zarur. Ikkinchidan, raqamli moliyaviy xizmatlarni ommalashtirish orqali moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini soddalashtirish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan o'quv dasturlarini joriy etish, mentorlik va konsultatsion xizmatlarni rivojlantirish ayol tadbirkorlarning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, ayollar tadbirkorligida moliyaviy inkluzivlikning asosiy muammosi moliyaviy resurslarning mutlaq yetishmasligida emas, balki ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligidadir. Bilim, axborot va raqamli kompetensiyalar darajasi oshgan sari moliyaviy tizim bilan integratsiya darajasi ham ortadi. Shunday qilib, moliyaviy inkluzivlikni oshirish strategiyasi faqat kredit hajmini kengaytirish bilan cheklanmasligi, balki moliyaviy savodxonlikni oshirish, raqamli

infratuzilmani rivojlantirish va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishni ham o'z ichiga olishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. *World Bank. (2022). Financial Inclusion and Development Report. Washington, DC: World Bank.*
2. *Demirgüç-Kunt, A., Klapper, L., Singer, D., Ansar, S. (2022). The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. Washington, DC: World Bank.*
3. *International Monetary Fund. (2021). Financial Access Survey: Trends and Developments. Washington, DC: IMF.*
4. *Asian Development Bank. (2019). Gender Equality and Financial Inclusion in Central Asia. Manila: ADB.*
5. *O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). O'zbekiston Respublikasida moliyaviy ommaboplik ko'rsatkichlari bo'yicha hisobot. Toshkent.*

## **BARQAROR MINTAQAVIY RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH STRATEGIYASI**

***Turopova Nigora Xolmurod qizi***

*Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasida o'qituvchisi, i.f.f.d*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada mintaqaning iqtisodiy o'sish drayverlarini rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy xavflar mazmuni, ularning turlari va baholash mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda investitsion faollikni oshirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *siqtisodiy o'sish, moliyaviy xavf, investitsiya, budjet barqarorligi, kredit xavfi, diversifikatsiya, mintaqaviy rivojlanish.*

Globalashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi davrda mintaqalarning barqaror va muvozanatli rivojlanishi milliy iqtisodiyot o'sish sur'atlarini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki mamlakat iqtisodiy salohiyati, avvalo, uning hududlari iqtisodiy faolligi, ishlab chiqarish quvvatlari va resurslardan foydalanish samaradorligi bilan belgilanadi. Shu bois mintaqaviy rivojlanish masalasi iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Mintaqaning iqtisodiy o'sish drayverlari sifatida sanoat ishlab chiqarishi, qishloq xo'jaligi, xizmatlar sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, investitsion faollik hamda infratuzilma rivoji alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur sohalarning izchil rivojlanishi yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va hududning raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va innovatsion loyihalarni amalga oshirish mintaqaviy iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratadi.

Mintaqaviy iqtisodiy o'sish drayverlarini rivojlantirish jarayoni keng ko'lamli moliyaviy resurslarni jalb etish va ularni samarali boshqarishni talab etadi. Biroq ushbu jarayonda turli moliyaviy xavflar yuzaga kelishi mumkin bo'lib, ular iqtisodiy